

O'ZBEKISTONDA O'ZBEK MILLIY ASKIYA SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

A.Kambarov ¹

¹ Farg'ona davlat universiteti Professor, (DSc)

O.Tojimamatova ¹

¹ Farg'ona davlat universiteti magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:11.05.2025

Revised: 12.05.2025

Accepted:13.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

Askiya, og'zaki ijod,
milliy madaniyat, ustoz-
shogird an'anasi,
pedagogika, muammo,
yechim.

Mazkur maqolada o'zbek milliy askiya san'atini rivojlantirishda uchrayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan. Jumladan, askiya san'atining ilmiy tadqiqotlar asosida o'rganilmasligi, ustoz-shogird maktablarining yetishmasligi, ta'lim tizimida e'tibor yetishmasligi kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar orqali askiyani keng targ'ib qilish, yosh avlodni ushbu san'atga qiziqtirish va madaniy mezonlarni saqlagan holda rivojlantirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

KIRISH. O'zbek xalqining milliy san'ati, xalq og'zaki ijodi namunalari, mumtoz musiqa merosimiz tarkibiga kirgan juda ko'p asarlar juda qadimiy bo'lib, o'ziga xos uzoq tarixga egadir. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy sohada islohatlarning amalga oshirilishi kelajagi buyuk davlatimizning yoshlarini har tomonlama etuk, jismonan baquvvat, raqobatbardosh, intellektual salohiyatli bo'lgan barkamol avlod tarbiyasi oldiga mu'im vazifalarni qo'yimoqda. Bu, avvalo, kelajak avlodni ma'naviy – ahloqiy ji'atdan har tomonlama tarbiyalashni, ularda bilim, keng dunyoqarash va eotiqodga ega bo'lishni talab etadi. Chunki mamlakatimiz kelajagi va istiqboli ana shu avlod tarbiyasiga har tomonlama bog'liqdir.

Ta'lim va tarbiyaga milliy qadriyatlar omillarini kiritish ishlari bosqichma bosqich va sharoitga mos holda puxta amalga oshirib kelindi. Endilikdai esa, milliy qadriyatlarning

zamonaviy ta'lim mazmuniga singdirilishi va integrasion jarayonning natijalarini ilmiy o'rganish ilmiy doiralarning asosiy mavzularidan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2023 yil 11 iyuldagi "Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 222-sonli qaroriga ko'ra, mamlakatimizda milliy qadriyatlarimizni, shu jumladan, milliy askiya va qiziqchilik san'atini asrab-avaylash, keng targ'ib etish va kelgusi avlod uchun nomoddiy madaniy meros sifatida etkazish maqsadida, Marg'ilon shahrida Madaniyat vazirligi tizimida davlat muassasasi shaklida Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazi tashkil etildi. Markazning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi. Xususan, markaz tomonidan askiya va qiziqchilik ijrochiligi yo'nalishida "ustoz-shogird" an'analarini rivojlantirish, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash, ularning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash, madaniyat va ta'lim muassasalarida askiya va qiziqchilik san'ati to'garaklarini tashkil etishdi. Shuningdek, o'zbek xalq og'zaki ijodining askiya va qiziqchilik san'atini saqlash va targ'ib etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish masalasi ishlab chiqildi. Bu borada ijodkorlar, folklorshunos olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarining ijodiy va ilmiy faoliyati qo'llab-quvvatlanmoqda.

Har bir xalqda hazil mutoyiba, baxslashuv, aytishuv janrlari bo'lib, o'zbek xalqida bulardan tashqari Askiya janri ham keng rivojlangan. O'zbek xalqi askiyasining boshqa hazil mutoyibalardan farqi shundaki, u bugungi kunda san'at darajasiga ko'tarila olgan janrlardan biridir. Askiya o'zbek xalq og'zaki ijodining bir turi, xalq qiziqchiligining tarkibiy qismi, keng tarqalgan tomosha san'ati hisoblanadi.

Askiya – o'zbek xalq og'zaki ijodining xushchaqchaq va kulgili tomosha san'atining ommalashgan janri. U odatda xalq sayilida, to'ylarda va boshqa marosimlarda ijro etilgan o'zbek xalq tomosha san'atining askiya janridir. Bu janr dastlab O'zbekistonning Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatlarida keng rivojlangan. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, san'at darajasiga ko'tarila olgan askiya janri bilan Farg'ona vodiysi aholisi to'y-tomoshalarida, davlat tadbirlarida faol qatnashib kelishadi. Ijrochi-askiyachilar (askiyaboz) bilan tinglovchilarining umumiy kulgisi askiyaga harorat, xushchaqchaqlik bag'ishlaydi.

Askiyaning mazmunli serzavq, kulgili chiqishida taraflardan hozirjavoblik, badihago'ylik, shuningdek, mavzuga oid so'zlarni topa olishi va harakatlaridan o'rinli foydalana olishi talab etiladi. Hozirjavoblik, ziyraklik va donishmandlikni, shu bilan birga, til va so'z boyligini, badiiy-estetik didni talab etadigan askiyada ikki yoki undan ortiq kishi yoxud ma'lum bir guruh orqali munozaraga kirishiladi. Aytilayotgan askiya birovning shaxsiyatiga tegib ketmasligi uchun har bir so'z va iborani ishlatishda ijrochi nihoyatda

ehtiyotkor bo'lishi zarur. "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi"²⁶. Ana shunday ruhiy-ma'naviy borliqni ifodalaydigan milliy qadriyatlarimizdan biri askiya janri deb bemalol aytishimiz mumkin. Chunki, askiyachi tilning keng imkoniyatlarini puhta egallagan, so'z o'yini, qochirim, hazil-mutoyiba, kinoya tashbih, kesatiq, o'xshatish, mubolag'a kabi havj san'ati vositalaridan ustalik bilan to'la foydalana oladigan bo'lishi lozim. Askiya san'atining vazifasi kulgi orqali kishilarning kayfiyatini ko'tarish, ularga zavq baxshida etish, muayyan mavzu doirasida ularning bilimlarini yanada kengaytirish, aqlini, fikrini charxlash, ziyrak, hozirjavob bo'lishga da'vat etish, shu bilan bir qatorda turmishdagi va ayrim kishilar xulqidagi kamchiliklar ustidan engil kulgu uyg'otishdir. Shuningdek, askiya degani raqibini so'z xujumini hozirjavoblik bilan qaytarib o'zi ham xujumga o'tishdir. Askiya o'zbeklar orasida ko'p asrlardan beri mavjud bo'lib, to'y yig'inlarda, sayillarda ikki tomonning tortishuvi natijasida badiiy so'z ustalari aniqlangan.

Askiya san'atini ilmiy tahlillar asosida o'rgangan H.Do'smatov askiya aytish jarayonida ikki taraf-raqibga bo'linib so'z payrovlari jangini tasvirlab bergan. "Taraflar ba'zan odamlar orasida, ba'zan qarama-qarshi o'tirgan, turgan yoki yurgan holda, tez javob berish va javoblarini serma'no, latif, ta'sirli, jozibador va kulgili chiqarish uchun harakat qiladilar. Qaysi taraf javob topishda sustkashlik qilsa, mavzu doirasidan chiqib ketsa yoki mantiqni buzsa, o'sha taraf yengilgan hisoblanadi. Adresatlar o'z kulgisi, qiyqirishlari bilan taraflar hamda ularning javoblariga baho berib boradi, ta'sirchan va serqochirim askiyalardan zavqlanadi, sayoz va qo'pollaridan ranjiydi. Shuning uchun har qanday askiyachi badiiy so'z boyligini puxta egallagan, so'z o'yinlari, qochirim, o'xshatish, mubolag'a, masxara kabi vositalarni faol, o'z o'rnida ishlata biladigan bo'lishi lozim. Chunki askiya janrining bosh maqsad va mohiyati so'z o'yini vositasida bellashish, kulgi qo'zg'atish va bir-birini mot qilishdan iboratdir".

Askiya janri bo'yicha deyarli yozma adabiyotlar kam. Mazkur janr bugungi kungacha ustoz-shogird an'anasiga tayangan holda bugungi kungacha etib keldi. Shunday bo'lsa-da, o'zbek milliy askiya san'ati bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligini ta'kidlash o'rinlidir. Jumladan, ma'rifat jonkuyari bo'lgan hassos shoir Cho'lpon o'zining 1936 yilda "Guliston" jurnalida e'lon qilingan "Qiziqar" maqolasida aynan ana shu masalaga to'xtalib, vaqt kutib turmasligini, mashhur qiziqarlarning har biri xalq teatrlarining

²⁶ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat. 2008. –B. 83

namoyon bo'lish shakli ekanligini alohida uqtirgan, tez orada ular xalq xotirasidan o'chib ketish xavfi ostida ekanidan ogohlantirgan edi.

Askiya san'atini o'rganishga qiziqish va unga ilmiy jihatdan tadqiq etish 1960 yildan boshlangan. Shungacha Sharif Rizoning 1940 yili "Guliston" jurnalining № 4-sonida bosilgan "Xalq san'atkorlari" maqolasi bilan A.L.Troiskyaning "O'zbekiston xalq teatri" qo'lyozmasida askiyaga bag'ishlangan bir bo'limcha hamda o'zbek satirasi muammolariga bag'ishlangan ayrim maqolalar, shuningdek, 1960 yili nashr etilgan To'lqin Obidovning "Yusufjon qiziq" risolasi bo'lgan.

Askiya san'ati alohida janr sifatida XV asrdan shakllana boshlagan. XVIII-XIX asrlarda askiya san'ati ta'kidlab o'tganimizdek, Farg'ona vodiysi va Toshkentda keng rivojlandi. Bu janrda kishilarning bir biri bilan badiiy so'z to'qishda, so'z o'yinida, adabiy bahsda, aqllar musobaqasida ko'pchilik o'rtasida halol tortishadilar. O'zbekistonda juda ko'p askiyachilar etishib chiqqan bo'lib, bular Marg'ilonlik Jalil buqoq, Sulaymon qori, Mamajon qovoq, mulla Muxammad buva, Qo'qonlik Mirzaraxim quloq, Niyozboqi sichqon, Zohid burun, Matxoliq askiya, Toshkentlik Abdulla fonus, Saidahmad, Ismat askiya singari askiyachilar shular jumlasidandir.

XX asrning o'rtalarida esa Erka qori Karimov, Ibroqum buva, Tursun buva Aminov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Jo'raxon Sultonov, Rasul xoji Mamarasulov, Zaynobbiddin va Madaminjon Yusupov, Muxiddin Darveshov singari mashxur askiyachilar faoliyat ko'rsatdilar. Erka qori Karimov askiyaning o'n to'rtta chistonini (payrovini) yaratgan. Bu chistonlar "O'xshatdim", "Gulmisiz, rayxonmisiz", "Afsana", "Ota bola", "Imorat qurish" singari payrovlardan iborat bo'lib xalq orasida mashxur bo'lgan.

Askiyada payrov syujeti alohida badiiy asar hisoblanadi, u askiyaning mukammallashgan va murakkab usuli sifatida izchil fikrlar oqimi bo'lib, ma'lum bir mavzuning ma'nosini boshidan oxirigacha echib beradi. Askiyachilar mavzu doirasida chetga chiqmaydilar. Unda an'anaviy payrovlar bo'lgan "O'xshatdim", "Bo'lasizmi", "Gulmisiz, rayhonmisiz", "Bedana", "Afsana", "Qofiya", "Bilganlar, bilmaganlar", "Laqab"lardan tashqari, zamonaviy mavzular "Paxta", "Oila", "Kino", "Dorbozlik", "Ashula", "Futbol" kabilar o'rin olgan. Payrovda bir mavzu atroflicha va chuqur ochilishi lozim. Mavzudan chekinish askiyachining mag'lubiyatidan dalolat beradi. Askiyada mavzuning to'g'ri tanlanishi, tushuncha, fikr tizimini izchil ravishda mantiqiy yakunga etkaza olish, badihago'ylik mahorati, tinglovchi e'tirofi muhim ahamiyat kasb etadi. Askiya harakat vositalari o'rinli inlatilishi, unda so'z qo'llash mahorati hamda muloqot jarayonidagi tezkorlik, imo-ishoralar uyg'unligi mahsulidir.

Farg'ona vodiysi hamda Toshkent vohasiga xos bo'lgan katta ashula va maqom san'ati namoyondalari, etuk aktyor va bastakorlar taniqli askiyachilar sifatida ham nom chiqarganlar. Ular Erka qori Karimov, Mamadbuva Sattorov, Jo'raxon Sultonov, Rasulqori Mamadaliev, G'anijon Toshmatov, Shoqosim, Shoolim va Shoakbar Shojalilovlar, Abulqosim To'ychiev, Zaynobiddin va Madaminjon Yusupovlar shular jumlasidandir.

Dunyoning hech bir mamlakatida uchramaydigan bu san'at yo'nalishida ijod qilayotgan askiyachining fikr doirasi keng, tafakkur qilish qobiliyati, bilim saviyasi yuqori bo'lishi kerak. Ular o'z so'ziga ega bo'lish bilan birga, gapirayotganda har bir fikrning mazmun mohiyatini chuqur tahlil qila olishi lozim. Chunki so'z gavhar, ma'nosi esa oltinga teng. Uni turli bachkana sha'ma, kesatiqlar bilan xiralashishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Men bu o'rinda marhum so'z ustasi, askiya va qiziqchilik san'atining buyuk darg'asi Yusufjon qiziq Shakarjonov, askiya san'atini maromiga etkazib, xalqning dilidan joy olgan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatga artist Jo'raxon Po'latov, askiya san'atida "Ustoz-shogird" an'analariga asos solgan Abdulhay Mahsum Qozoqov, Hasanboy Sultonov, Muhammadsiddiq Sheraevlar, shuningdek, hozirgi kunda ijod qilayotgan Hotamjon Hakimjonov, Abdulla Akbarov, Anvarjon Ne'madaliev, Muhammadsiddiq Alixonov, Mansurjon Oxunovlar xizmatlarini alohida ta'kidlamochiman.

Askiya erkaklarga xos janrdir, ammo hozirgi kunda ayollar o'rtasida ham mazkur janr ommalashayotganligini kuzatish mumkin. Askiya o'zbek xalqi tafakkuri, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlarni o'zida ifodalagan ma'naviy xazinadir. Zero, o'zbek milliy askiya san'ati ijtimoiy an'analar bilan bog'liq ravishda hayot tarzi kuzatuvlari asosida muhim masalalarga e'tibor qaratilgan janr sifatida madaniy so'z va tilga oid ma'lumot berishda ahamiyati katta.

Har bir inson ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglamay, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch totuv yashagan markaz bo'lib kelgan. Shuning uchun ham har bir xalq, millat, elat ularni ko'z qorachig'iday avaylab-asrashi, taraqqiy ettirishi, kelgusi avlodlarga ma'naviy qadriyat sifatida etkazmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda, asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan milliy ma'naviy qadriyatlarimiz, askiya sanoati xalqimizga xizmat qilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, bizning o'zbek xalqi mutoyibaga boy, hajvg ustaligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Har tomonlama rivojlangan, gormonik barkamol, milliy qadriyatlarimizni e'zozlaydigan

barkamol avlod tarbiyasida mahalla, ota-onalar va pedagoglarning o‘zaro xamjixatligi asosiy omillardan xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiboyev A. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Jo‘rayev B. Askiya – xalq donishmandligining durdonasi. – Farg‘ona: FarPI, 2017.
4. Normatov A. Askiya san’atining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2014.
5. G‘afurov A. O‘zbek xalq kulgusi va askiya san’ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012.
6. Qodirov M. O‘zbek milliy an’alarining tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
7. Sa’dulla Xo‘jayev. Askiya san’atining pedagogik va estetik asoslari. – Andijon, 2019.
8. Yusupov Sh. O‘zbek og‘zaki ijodining turlari va janrlari. – Samarqand, 2011.
9. Xasanov M. Madaniyatshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
10. Qurbonova D. Askiya orqali ma’naviy tarbiya berish yo‘llari. – Maqola. // “Pedagogik izlanishlar” jurnali, 2020, №2.